

ROLLI O'YINLAR ORQALI TANQIDIY FIKRLASHNI RIVOJLANTIRISH**Shamshidinova Gulmira Ibroximjonovna****23-maktab ingliz tili fani o'qituvchisi****gulshams87@gmail.com****<https://doi.org/10.5281/zenodo.17461871>**

Annotatsiya: Ushbu tezisda xorijiy til va boshqa fanlarni o'qitishda rolli o'yinlar metodidan foydalanish orqali o'quvchilarda tanqidiy fikrlash, kommunikativ kompetensiya va hamkorlik madaniyatini rivojlantirish masalalari yoritilgan. Tadqiqotda bu metodning CLIL yondashuvi bilan uyg'unlashuvi, o'quvchilarning mustaqil tahlil qilish va mantiqiy xulosa chiqarish salohiyatiga ta'siri tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: rolli o'yinlar, tanqidiy fikrlash, CLIL, metakognitiv ko'nikmalar, kommunikativ kompetensiya.

Abstract: This thesis explores the use of role-playing methods in teaching foreign languages and other subjects to develop students' critical thinking, communicative competence, and culture of collaboration. The study analyzes the integration of this method with the CLIL approach and its impact on students' ability to independently analyze and draw logical conclusions.

Keywords: role-playing, critical thinking, CLIL, metacognitive skills, communicative competence

Kirish

Bugungi ta'lim jarayoni o'quvchidan faqat bilim olishni emas, balki o'ylash, tahlil qilish, dalillash va mustaqil qaror qabul qilishni ham talab etadi. Shu bois, o'qituvchilar orasida tanqidiy fikrlashni rivojlantiruvchi metodlarga qiziqish ortib bormoqda. Shulardan biri — rolli o'yinlar metodi — o'quvchini real hayotiy holatlarni modellashtirish orqali faol fikrlashga undaydi.

Maqsad

Ushbu tadqiqotning maqsadi rolli o'yinlar metodining o'quvchilarda tanqidiy fikrlash, tahliliy yondashuv va muloqot madaniyatini shakllantirishdagi o'rni va ahamiyatini o'rganishdan iborat.

Metodologiya

Tadqiqot davomida tahlil, kuzatish va taqqoslash metodlaridan foydalanildi. O'zbekiston va xorijiy olimlarning ta'lim metodikasi bo'yicha ilmiy ishlari o'rganildi, ularning natijalari taqqoslab tahlil qilindi. Shuningdek, CLIL yondashuvi bilan integratsiyalashgan rolli o'yinlar samaradorligi o'quvchilarning faol ishtiroki orqali baholanadi.

Asosiy qism

Rolli o'yinlar metodi ta'lim jarayonida o'quvchini markazga qo'ygan holda, uning faolligini, ijodkorligini va mustaqil fikrlash salohiyatini rivojlantiradi. Bu metod orqali o'quvchi hayotiy vaziyatlarni sahnalashtirib, muammoga nisbatan turli yechimlarni ishlab chiqadi [1].

O'zbek olimlari fikricha, rolli o'yinlar dars jarayonida o'quvchini faqat bilim oluvchidan faol ishtirokchiga aylantiradi. N. Rasulova o'z tadqiqotida ushbu metod o'quvchilarda o'z fikrini asoslash, boshqalarning qarashlarini tinglash va baholash ko'nikmalarini shakllantirishini ta'kidlaydi [2]. Shu jarayonda o'quvchilar o'z pozitsiyasini dalillar asosida himoya qilishni o'rganadilar, bu esa tanqidiy fikrlashning asosiy komponentidir.

A. Madrahimova esa roli o'yinlar o'quvchilarning kommunikativ kompetensiyasini, nutq madaniyatini va jamoaviy qaror qabul qilish qobiliyatini rivojlantirishda samarali vosita ekanini qayd etgan [3]. Bu jarayon o'quvchilarda o'z fikrlash jarayonini kuzatish — ya'ni metakognitiv refleksiya — kuchaytiradi [4]. CLIL yondashuvi bilan uyg'unlashganda roli o'yinlar o'quvchilarga fan va tilni birgalikda o'zlashtirish imkonini beradi. D. Ubaydullaeva ta'kidlaganidek, til va mazmun integratsiyasi orqali o'quvchi o'rganayotgan bilimni real holatlarda qo'llay oladi, bu esa tanqidiy va ijodiy fikrlashni rivojlantiradi [5].

Shuningdek, Z. Qodirova o'z tadqiqotlarida roli o'yinlardan foydalanish o'quvchilarning nutq faolligini, ijtimoiy moslashuvini va shaxsiy fikr bildirish qobiliyatini oshirishini aniqlagan [6]. Bu esa o'quvchilarning o'z fikrini mustaqil ifodalash, muammoni tahlil qilish va mantiqiy xulosa chiqarish ko'nikmalarini mustahkamlaydi [7].

Natijalar

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, roli o'yinlar metodini tizimli qo'llash o'quvchilarning quyidagi jihatlarini rivojlantiradi:

- mustaqil va tahliliy fikrlash qobiliyatini;
- dalillash, isbotlash va xulosa chiqarish malakasini;
- muloqot, murosa va jamoaviy fikrlash madaniyatini;
- o'z fikrini ifodalashda aniq va mantiqiy yondashuvni.

Muhokama

Olingan natijalar asosida aytish mumkinki, roli o'yinlar o'quvchilarning tanqidiy fikrlashini faqat nazariy emas, balki amaliy jihatdan ham rivojlantiradi. Ular o'z fikrlarini dalillash, boshqalarning fikrini baholash, xatolarini aniqlash va ularni to'g'rilashni o'rganadilar. Shu bilan birga, bu metod o'quvchining o'ziga ishonchini oshiradi, ijtimoiy faolligini kuchaytiradi va jamoada ishlash madaniyatini shakllantiradi.

Xulosa

Roli o'yinlar o'quvchilarda tanqidiy fikrlash, muloqot madaniyati va ijodkorlikni rivojlantiruvchi samarali metodlardan biridir. Uni CLIL kabi integrativ yondashuvlar bilan uyg'unlashtirish ta'lim sifatini oshiradi va o'quvchini faol, mustaqil fikrlovchi shaxs sifatida shakllantiradi. Shu bois, ushbu metodni ta'limning barcha bosqichlarida tizimli joriy etish maqsadga muvofiqdir.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Karimova, M. Interfaol metodlar orqali ta'lim samaradorligini oshirish yo'llari. — Toshkent: Fan, 2019.
2. Rasulova, N. Rolli o'yinlar asosida xorijiy tilni o'qitishning psixologik xususiyatlari. — Toshkent: TDPU, 2020.
3. Madrahimova, A. Pedagogik texnologiyalar va ularning o'quv jarayonidagi roli. — Samarqand: SamDU, 2021.
4. Yo'ldosheva, M. Tanqidiy fikrlash va refleksiya: nazariya va amaliyot. — Toshkent: O'zMU nashriyoti, 2021.
5. Ubaydullaeva, D. CLIL yondashuvi orqali tanqidiy fikrlashni shakllantirish. — Til va ta'lim, №3, 2020.
6. Qodirova, Z. Xorijiy tillarni o'qitishda o'yinli metodlardan foydalanish. — Innovatsion

ta'lim jurnali, №4, 2022.

7. Saidova, L. O'yin texnologiyalarining ta'limdagi o'rni. — Pedagogika fanlari jurnali, №2, 2023.